

INGLIZ TILIDA SO'ZLASHISH VA TUSHUNISHNI O'RGANISHDAGI ASOSIY QIYINCHILIK VA MUAMMOLAR

Azamova Muattarxon Akramjon qizi

Qo'qon shahar 1-son texnikumi katta o'qituvchisi

Biz bilamizki, mamlakatimizda bugungi kunda chet tillariga bo'lgan e'tibor jadal rivojlanib, hatto siyosat darajasigacha ko'tarilmoqda. Chet tilini o'qitishda mashg'ulotdan oldin darsning har bir daqiqasi maqsadli ravishda rejalashtirilishi lozim. O'quvchilarda o'qish, yozish, tinglab tushunish bir xil darajada rivojlanishi uchun bir dars davomida mazkur aspektlarning barchasini uzluksiz va bir-biriga bog'liq holda rejalashtirish yanayam ko'p foyda beradi. Yangi so'zlar esa har bir mashg'ulotni tegishli mavzu bo'yicha o'rganilishi ko'zda tutiladi. Bir mashg'ulot davomida:

- tegishli mavzu yuzasidan yangi so'zlarni o'zlashtirilishi;
- yangi so'zlardan tashqari ularning qo'llanilishi va dars mavzusiga mutanosib tildagi konstruksiya yoki oborotlarning to'g'ri qo'llanilishi bilan tanishuv;
- mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan so'zlardan tuzilgan ma'lum hajmdagi matn bilan tanishish;
- matn mazmuni yuzasidan munozara yoki kichik suhbat tashkil etish va mazkur suhbatning o'rganilayotgan so'zlar va ma'lum konstruksiya yoki oborotni mustahkamlashga yo'naltirilgan bo'lishi;
- mavzu yuzasidan audio matn tinglash va tinglash davomida tushunib, kerakli ma'lumotlarni qayd qilish, audio bo'yicha mashqlar ustida ishlash;
- audio matn mazmuni va matn yuzasidan bayon yoki rezyume yozish (uyga vazifa sifatida);

- yozish jarayonida o'rganilgan so'zlar va konstruksiyalarni qo'llash;

Buni quyidagi ko'rinishda izohlash mumkin. Aytaylik, mashg'ulot mavzusi Travelling, demak mazkur mavzu yuzasidan suhbat yuritishda ko'proq qo'llaniladigan oborot va konstruksiyalar ro'yxatini tuzish kerak bo'ladi. Bular there is, there are, where(relative clause), prefer/ wish/ plan/ intend/ would like/ want/ decide/ make up one's mind/ desire/ to be going+ to do something, enjoy/relish + doing va bir necha zamonlarning qo'llanilishidir. Birinchi bosqichda yangi so'zlarning o'zlashtirilishi uchun tahminan 30 ta qog'ozchalarga mavzu bo'yicha yangi so'zlarni yozib, huddi shu so'zlar bo'yicha yana boshqa 30 dona qog'ozchalarga ularning ingliz tilidagi izohi, yoki kontekst bo'yicha qo'llanilish situatsiyasi yoziladi. O'quvchilardan 3 yoki 4 guruhga bo'lib, har bir so'z yozilgan qog'ozchadagi so'zni tegishli jufti bilan moslash talab qilinadi. Vazifa musobaqa ko'rinishida bajarilgach, har bir guruh qatnashchilari o'z javoblarini bir-biriniki

bilan taqqoslab, o'z xatolarini to'g'irlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mazkur usul yordamida yangi so'zlar o'zlashtirilgach, shu so'zlar ishtirokida tuzilgan matn talabalarga tarqatiladi. Matnni turli ko'rinishda berish mumkin. Ya'ni uni bir necha qismlarga bo'lib, topshirilsa, o'quvchilar uning qismlarini tartib bilan joylashtirilishi kerak bo'ladi. Matnni o'qitishda ham turli xil metodlardan foydalanish mumkin. Matn paragraflarga bo'linib, juft sonli paragraflar bir guruhga, toq sonlisi boshqa bir guruhga topshiriladi. Berilgan vaqt ichida o'ziga tegishli paragraf bilan tanishgan guruhdan qatnashchilar galma galdan matn paragraf mazmunini tariflashadi. So'ngra esa, har bir guruh mazmuni faqatgina tinglangan paragrafni o'qib, raqib guruh qilgan xatolari, tushirib qoldirgan ma'lumotlarni sanab o'tishadi. Bunda yangi o'zlashtirilgan so'zlar ham hisobga olinadi. Eng kam xato qilgan guruh g'olib deb topiladi. Shu tariqa raqobat ruhida o'quvchilar guruh bo'lib ishlashga da'vat etiladi.

Navbatdagi bosqichda o'quvchilarga mavzu yuzasidan audio eshittirilib, o'quvchilarga tegishli ma'lumotlarni qayd etish kerakligi tushuntiriladi. Audio eshitib bo'lingach, har bir guruhdan bittadan qatnashchi yangi so'zlarni qo'llagan holda audiodagi ma'lumotni tushuntirib o'tadi. Bu jarayonga ham o'zgacha usulda yondashish mumkin. Misol uchun audioni ma'lum bir qismigacha eshittirib, qolgan qismi qanday bo'lishi mumkinligi haqida xulosa qilishni o'quvchilar ixtiyoriga topshiriladi. Shunda guruhda baxs munozaraga sabab tug'ilishi mumkin. Qolaversa, audio yuzasidan turli mashqlar tayyorlanib, mazkur mashqlar ustida ishlash, hamda uy vazifasi sifatida audio matnning mazmuni haqida bayon topshirilishi ham mumkin. Mazkur ko'rinishda dars tashkil etish uchun avval darsning har bir daqiqasi rejalashtirilib olinadi. Tayyorlanadigan rejaga ko'ra dars mashg'ulotiga ajratilgan vaqtni yangi so'zlarni o'zlashtirish, matnni o'rganish, munozara, tinglab tushunish kabi dars bosqichlariga tegishli turli interaktiv o'yinlar va materiallarning o'rganilishi uchun ma'lum vaqt ajratish kerak bo'ladi. Mazkur o'yinning o'ynalishi va materialning o'rganilish jarayoni ham mazkur rejada qayd etilsa yanada qulay bo'ladi. Negaki bu darsning qizg'in va uzluksiz borishini ta'minlaydi. Shuningdek, rejada ko'zda tutilgan yangi so'zlar, konstruksiya va oborotlarni o'quvchilar berilgan mavzu yuzasidan tashqari boshqa vaziyatlarda ham erkin qo'llash imkoniga ega bo'ladilar. Ham matn ham tinglab tushunish yuzasidan bayon, rezyumelarning uy vazifasi sifatida topshirilishi esa o'quvchilarni o'rganilganlar ustida mustaqil ravishda ham ishlashiga turtki beradi.

ADABIYOTLAR:

1И.В.Рахманов, Н.И.Гез. Основные направления преподавания английского языка. М.1972

2Щерба Л.В. Преподавания инстранных языков в средней школе. М.1974

3Jones, Vernon F, and Louise Jones. Responsible Classroom Discipline. Boston:
Allyn and Bacon, Inc., 1981.